

Advokat – sud muhokamasi bosqichlari ishtirokchisi sifatida

Mirzoyeva Mohinur Ulug'bek qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Yuridik fakulteti
“Davlat – huquqiy fanlar” kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqot ishida advokatning sud muhokamasi bosqichlaridagi huquqiy maqomi, protsessual vakolatlari hamda amaliy faoliyatining ahamiyati keng yoritilgan. Sud muhokamasi adolatli sudlovni amalga oshirishning markaziy bosqichi bo'lib, unda advokat himoya qiluvchi shaxs sifatida faol ishtirok etadi. Tadqiqot davomida advokatning dalillarni tekshirish, baholash, sudga huquqiy pozitsiyani asoslab berish, protsessual tenglikni ta'minlashdagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Advokat, sud muhokamasi, dastlabki eshituv, sud tergov, advokat himoya nutqi, dalillarni baholash, sud jarayoni, huquqiy kafolatlar.

ABSTRACT

In this research work, the legal status, procedural powers, and the significance of the advocate's practical activity at the stages of court proceedings are comprehensively examined. Court proceedings represent the central stage in the administration of fair justice, in which the advocate actively participates as a defense counsel. Throughout the study, the role of the advocate in examining and evaluating evidence, substantiating legal positions before the court, and ensuring procedural equality is analyzed.

Keywords: Advocate, court proceedings, preliminary hearing, judicial investigation, defense speech of the advocate, evaluation of evidence, trial process, legal guarantees.

Sud muhokamasi — adolatli sudlovni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan protsessual bosqich bo'lib, unda advokat muhim va faol ishtirokchi sifatida namoyon bo'ladi. Advokatning sud muhokamasidagi ishtiroki shaxsning konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Sud muhokamasi bosqichida advokatning asosiy vazifasi himoya yoki vakillik funksiyasini amalga oshirish orqali sudga ishning barcha holatlarini to'liq, xolis va qonuniy baholashda yordam berishdan iborat. U dalillarni tahlil qiladi, guvohlar ko'rsatmalariga baho beradi, ekspert xulosalarini tanqidiy o'rganadi hamda sud e'tiborini ish uchun muhim bo'lgan holatlarga qaratadi. Advokatning protsessual faolligi taraflarning teng huquqliligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotda sud muhokamasi bosqichlarida advokatning huquqiy maqomi, protsessual vakolatlari hamda amaliy faoliyatining nazariy va amaliy asoslarini kompleks o'rganishdan iborat. Tadqiqot doirasida advokatning sud muhokamasidagi o'rni va ahamiyatini aniqlash, uning himoya funksiyasini amalga oshirish mexanizmlarini tahlil qilish hamda adolatli sudlovni ta'minlashdagi rolini yoritish ko'zda tutiladi.

Shuningdek, tadqiqotning muhim maqsadlaridan biri advokatning dalillarni to'plash, tekshirish va baholash jarayonidagi ishtirokini, sud tergovni davomida huquqiy pozitsiyani asoslab berishdagi faoliyatini hamda protsessual tenglik va taraflar huquqlarining kafolatlanishiga qo'shgan hissasini aniqlashdan iborat. Advokatning sud tergovida tayyorgarligi uning jinoiy ish bo'yicha isbotlash jarayonida qatnashishini nazarda tutadi. Birinchi instansiya sudida ish ko'rilishi bosqichida himoyachi dalillar to'plash, suddan, tegishli iltimosnoma berish, guvohlarni o'z roziligi bilan tushuntirishlar olish, qo'shimcha dalillar talab qilib olish huquqiga ega. Sud tergovida himoyachi, ayblov tomon dalillarini o'rganishda, ularning tegishliligi, ishonchligini tekshirishda qatnashib, agar taqdim etilgan dalillar prokuror tomonidan nomaqbul deb hisoblasa, o'z mavqegini asoslab berishi kerak. Shundan keyin himoya tomoni o'z dalillarini keltiradi. Sud tergovida himoyachi faol bo'lishi kerak. Bevositalik sudning ishda mavjud bo'lgan va sudga taqdim etilgan, ular asosida jinoiy ishda isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarning mavjudligi yoki mavjud emasligi aniqlanadigan dalillarni shaxsan qabul qilishi, ko'rib chiqishi va o'rganishi majburiyatini nazarda tutadi.

Advokat himoya nutqining mazmunini to'plangan barcha dalillar va ish yuzasidan kelib chiqib himoya nutqini shakllantiradi. Himoyachida va himoya ostidagi shaxs (ishonch bildiruvchi shaxs)ga ayblovning isbotlanganligi va qilmishning tasniflanishi uchun asoslar mavjud bo'lmaganda ularni rad etuvchi himoya pozitsiyasini belgilaydi. Bunda himoya nutqida sudlanuvchi shaxsining tavsifiga va javobgarlikni yengillatuvchi holatlarga, shuningdek jinoyatni sodir etishga ko'maklashuvchi sabab va shart-sharoitlarga asosiy urg'u beriladi. Sud jinoyat ishi bo'yicha dastlabki eshituvni nafaqat taraflarning yozma yoki og'zaki iltimosiga ko'ra, balki o'z tashabbusi bilan ham tashkil etishi mumkin. Dastlabki eshituvning o'tkazilishi jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilangan qator asoslar mavjud bo'lgandagina amalga oshiriladi. Ushbu bosqich sud jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, keyingi sud muhokamasining mazmuni va qonuniyligini belgilab beradi.

Ushbu tadqiqotda advokat sud muhokamasi bosqichlarining muhim ishtirokchisi bo'lib, u shaxsning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Advokatning protsessual faolligi dalillarni to'g'ri baholash, protsessual

tenglikni ta'minlash hamda adolatli va asosli sud qarorini qabul qilishga xizmat qiladi. Shu bois, advokatning sud muhokamasidagi o'rni va vakolatlarini takomillashtirish adolatli sudlovni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa.

Ushbu tadqiqot advokatning sud muhokamasi bosqichlaridagi ishtiroki adolatli sudlovni ta'minlashda muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Sud muhokamasi jarayonida advokat shaxsning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi asosiy protsessual subyektlardan biri sifatida maydonga chiqadi. Uning dalillarni tekshirish va baholashda, sud tergovida faol qatnashishda hamda huquqiy pozitsiyani asoslab berishda namoyon etadigan professional faoliyati sud qarorining qonuniy, asosli va adolatli bo'lishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda sud-huquq tizimini isloh qilish, inson huquqlarini ishonchli himoya qilish va taraflarning protsessual tengligini ta'minlash masalalari dolzarblik kasb etmoqda. Ushbu jarayonda advokatning sud muhokamasidagi huquqiy maqomi va vakolatlarini amalda to'liq ro'yobga chiqarish alohida ahamiyatga ega. Advokatning himoya nutqi, protsessual tashabbusi va qonunbuzarliklarga o'z vaqtida e'tiroz bildira olish qobiliyati sud muhokamasining shaffof va xolis o'tishini ta'minlaydi. Shu bois, advokat faoliyatining sud muhokamasi bosqichlarida samaradorligini oshirish, uning protsessual huquqlarini mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish adolatli sudlovni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Mazkur tezisdagi yoritilgan xulosalar sud-huquq amaliyotini takomillashtirishga, shuningdek, advokat institutining jamiyatdagi o'rni va nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi .
<https://lex.uz/docs/-111460>
2. O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni
<https://lex.uz/docs/-62838>
3. O'zbekiston Respublikasining "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-115269>
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlari
<https://sud.uz/page/plenum-qarorlari>
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rasmiy veb-sayti <https://sud.uz>
6. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Huquqiy axborot portal
<https://huquqiyportal.uz>
7. O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi rasmiy sayti
8. <https://advokatlar.uz>
9. Ismoilov B.T. *Jinoyat protsessida himoya huquqi va advokat faoliyati.*
– Toshkent: Yuridik adabiyotlar nashriyoti. <https://lex.uz>